

Ona yurting - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№43 (66376)
2002 yil
21 oktabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

Ajdodlarimdan qolgan ulug' meros, bobolarim navosi yangragan ona tilim, bugun sen qushdek ozod, bulbuldek sayroqisan! Kimlardir seni qolipga

Ona tilim, sen chindan-da qadimiy va buyukdirsan. Asrlar osha seni qadrlab kelayotgan aziz xalqim bugun to'yingni tantana qilyapti.

O'ZLIGIMNING O'ZAGI - ONA TILIM!

solmoqchi, yo'qotmoqchi bo'ldilar. Ammo urinislari zoye ketdi. Biz farzandlaring bor ekanmiz, senga gard yuqtirmaymiz. Kundan kunga boyib, sayqallanib boraverasan. Sen biz uchun ona misol muqaddassan. Qutlug' o'n uch yoshingni tantana qilayotgan ushbu munavvar kunlarda turkiy tilimiz kansitilgan bir davrda mohir zargar misol uning naqadar go'zal va boy ekanligini o'z asarlari bilan namoyish eta olgan so'z mulkining sultoni Navoiy bobomiz asrlar osha qoshimizga kelib, o'z tilini ardoqlayotgan avlodlaridan minnatdor bo'lyaptilar go'yo. Shoир bobomiz emasmi, qadringni yerdan osmonu falakka ko'targan, jiloingni dunyoga ko'z-ko'z qilgan inson?!

Respublikamizning har bir go'shasida, barcha o'quv maskanlarida sening noming takror va takror tilga olinyapti, senga bag'ishlab she'rlar, g'azallar

ONA TILIM

Tillar ichra yagonasan, ona tilim, O'zligimni anglatgansan, ona tilim, Zahiriddin Muhammadni Hindistonda, O'z tilida sayratgansan, ona tilim. Olis o'lkalarda o'z tilim debon, O'zbegin, o'zligim, o'z elim debon. Turkiy tilda senga ta'riflab, Navoiy bobomiz tuzdilar devon.

Zulfizar SODIQOVA,
Toshkent shahar,
Sobir Rahimov tumanidagi
243 - maktabning 9 - «A» sinf
o'quvchisi.

o'qilyapti. Bizning bilim dargohimizda ham bugun shodiyona O'quvchilarimiz senga bo'lgan hurmat va ehtiromlarini dil so'zlari, she'riy mashqlari orqali namoyish etmoqdalar

Bugun nafaqat bolalarning kattalarning ham senga aytar gaplar bisyor. Buxorolik taniqli shoirlarimiz maktabimizdagi «Ona tili va adabiyot» sho'basi a'zolar huzurida sening sha'ningga bitilgan qasidalari, g'azal va she'rlarini o'qiyaptilar. Bir so'z bilan aytganda ushbu kun dunyodagi barcha iliq gaplar sening sha'ningga aytilyapti O'ZBEK TILIM!

Zarnigor JALILOVA,
Buxoro shahridagi 34 - son
o'rta maktabning 8- «A» sinf
o'quvchisi,

BELORUSSIYADAN YANA XAT KELEDI

Assalomu alaykum aziz vatandoshlarim! Qadrli «Tong yulduzi»m! Senga yuborgan ko'plab maqolalarimni o'z sahfalariningda chop etganidan boshim osmonga yetdi. Sening faol muxbirlarining qatoridan o'rin olay deb qoldim. Qaniydi, o'z vatanim bo'lmish



O'zbekistonda yashasamu senga obuna bo'lolsam. Har bir soningni intazorlik bilan kutib, sahfalariningni bitta qoldirmay o'qib chiqardim...

Afsuski, inson har doim ham o'zi xohlagandek yashay olmas ekan. Buvijonimning salomatliklari yomonligi bois, Belorussiyada yashab turibmiz. Qaniydi, tezroq tuzalsalaru qanot chiqarib, qadrondan Bekobodimga uchib borsam. Lekin men imkoniyatim

yo'q, deya qo'l qovushtirib o'tirmayman. O'zbekistonlik do'stlarim orqali seni olib, o'qib borishga intilaman. Menga havas qilib, sindoshlarim ham o'zbekistonlik bolalar bilan do'stlashishni niyat qilyaptilar. Bizga maktub yozing, aziz do'stlarim. Xatlarizing menga qanot bag'ishlaydi.

Maryam MIRZAYEVA,
Magilyov viloyati,
Kirovsk tumanidagi
47 - maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.



Mustaqil diyorimizga to‘y-yu tantanalar, bayramlar yarashadi. Yaqinda yurtimizning so‘lim go‘shalardan biri Farg‘ona shahri yanada ko‘rkamlashib, bayramona tus oldi. 26-28 sentabr kunlari Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkilotining navbatdagi III - Rayosat yig‘ilishi qatnashchilarini iliq qarshi oldi.

Yig‘ilishda

AJIB ANJUMAN BO`LDI

Farg‘ona viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi, viloyat mактабдан tashqari ta’lim Markazi, Bolalar jamg‘armasi viloyat bo‘limi, «Ma’naviyat va ma’rifat» Markazi viloyat bo‘limi, Kasaba uyushmalari viloyat Kengashi, «Sog‘lom avlod uchun» xayriya jamg‘armasi, «Yosh kuch» jurnali bosh muharriri, «Tong yulduzi» gazetasi bosh muharriri, «Gulxan» jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, «Farg‘ona yoshlari» gazetasi muharrirlari, «Yangi avlod» studiyasi hamda Viloyat teleradiokompaniyasining yakillari ishtirok etishdi.

Rayosat yig‘ilishi qatnashchilar Bolalar tashkiloti Farg‘ona viloyat bo‘limining ish faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Ishtirokchilarni Rayosat yig‘ilishining kun tartibi bilan tanishtirish maqsadida tashkiliy

yig‘ilish o‘tkazildi. Uni Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati raisining 1 - o‘rinbosari, Respublika Bolalar tashkiloti raisi Q Quranboyev olib bordi. Yig‘ilishda Bolalar tashkilotining o‘quv maskanlari sardorlari uchun uslubiy tavsiya va yo‘riqnomalar loyihasi



o‘tkazildi. Seminar davomida o‘quvchi yoshlarni Bolalar tashkilotiga a’zolikka qabul qilish strukturasi hamda o‘quv maskanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan sardor, yetakchi o‘quvchi yoshlarning ish tizimini yengilroq olib borish loyihasini yaratish maqsadida Respublika Bolalar tashkilotining uslubiy tavsiya va yo‘riqnomalari ishtirokchilarga tarqatildi. Loyiha ustida ishlash uchun ishchi guruhlari tashkil qilindi: yo‘riqnomalar bilan ishlab chiqish guruhi, Rayosat Axborotini tayyorlash guruhi, Bolalar tashkilotining a’zolariga ko‘krak nishoni (znachogi)ni tarqatish bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqish guruhi, «Siz qonunni bilasizmi?», «Siz tarixni bilasizmi?» qo‘shma qarorini o‘rganib chiqish bo‘yicha guruhlar tashkil qilindi.

27 sentabr kuni Bolalar tashkilotining raislari ishtirokida Al-Farg‘oniy poyiga gulchambar qo‘yildi. Shundan so‘ng

Farg‘ona shahrining 5 - umumta’lim mактabi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkilotining faoliyati bilan tanishib, «Ta’lim-tarbiya dasturi amalda» mavzusida o‘quvchilarning ko‘rgazmali namoyishi bo‘lib o‘tdi. Ko‘rgazmadan so‘ng mакtab o‘quvchilarini Bolalar tashkilotiga qabul qilish va ularning qasamyodi marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘quvchilar tayyorlagan kuy va qo‘shiqlarni yig‘ilganlar maroq bilan tomosha qilishdi. Ushbu tadbir tashkilotga qabul qilingan bolajonlar uchun haqiqiy bayramga aylandi va ularning yodida bir umrga saqlanib qoladigan kun bo‘lib qoldi.

Tantanadan so‘ng boshlangan Rayosat yig‘ilishida 23 nafar Rayosat a’zosi, Farg‘ona viloyat Kengashi tuman raislari va Bolalar tashkiloti raislari o‘quv yurtlari yetakchi sardorlari hamda mакtab o‘quvchilari ishtirok etdilar.

Rayosat kun tartibida quyidagi

E’LON!

Diqqat, Diqqat!

Aziz bolajonlar!

O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» Bolalar tashkiloti Respublikamizdagi 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan ijodkor o‘quvchi yoshlar o‘rtasida tashkilotning faoliyati, yo‘nalishlari bo‘yicha she’rlar, qo‘shiqlar (madhiya), shiorlar ko‘rik-tanlovini o‘tkazmoqda. Tanlov shu yilning oktabr-noyabr oylarida bo‘lib o‘tdi. Tanlovda ishtirok etishni xohlovchi o‘g‘il-qizlar o‘z ijod namunalarini quyidagi manzilga yuborishlari mumkin. Kelajakda Sizning ijod namunalaringiz «Kamalak» Bolalar tashkilotining ramziy she’r, madhiyasi va shioriga aylanadi.

Bizning manzil: 700011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 11-uy, O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» Bolalar tashkiloti.

masalalar ko'rib chiqildi:

1. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkilotining 2002 yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi hisoboti.

2. Yozgi oromgohlarda «Bolalar tashkiloti» faoliyatini mavsumiy tashkil qilishning yakunlari va oromgohlarda olib borilgan ishlari to'g'risidagi hisoboti.

3. Bolalar tashkilotining 2002 yilning ikkinchi yarim yillik ish rejasini tasdiqlash.

4. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkilotining «1 - Respublika anjumani» yakunlari to'g'risida hisobot.

5. «Bolalar» tashkilotiga yagona nom berish to'g'risida.

6. Respublikamiz umumta'lum mактабларидаги о'tказиладиган «Siz qонунни биласизми?», «Siz tarixni биласизми?» ко'rik-tanlovlарининг янги Nizом loyihasi to'g'risida.

7. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkilotining faoliyatida qo'llaniladigan hujjalар loyihalari to'g'risida.

8. «Yangi avlod» Bolalar Klubining Nizomini muhokama qilish to'g'risida.

Yig'ilish kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Bolalar tashkilotining Rayosat yig'ilishi qaroriga asosan tashkilotda 2002 yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti qoniqarli deb topdi.

O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy Harakati homiyligidagi Bolalar tashkiloti III-Rayosat yig'ilishi o'z ishini yakunladi.

Rayosat a'zolari Burxoniddin Al-

Marg'iloni majmuasini ziyorat qildilar. Burxoniddin Al-Marg'iloni majmuasi xalqaro xayriya jamg'armasining raisi majmuuaning yaratilishi va uning tarixi haqida gapirib o'tdi. Rayosat a'zolari shuningdek, Marg'ilon shahar bo'limining «Istiqlol» gimnaziya boshlang'ich tashkiloti ish faoliyati bilan ham tanishdilar. Gimnaziya litseyida tahsil olayotgan bolalar mehmonlarni o'z konsert dasturlari bilan qarshi olishdi. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi Bolalar tashkiloti Raisi Q.Quranboyevning gimnaziya o'quvchilari bilan dildan qilgan davra suhbat juda samimi o'tdi. Suhbat davomida Farg'ona shahar hokimining birinchi o'rribosari Atham Boboraimovich ham so'z olib, o'quvchi-yoshlarga kelajakdagil ishlari omadlar tiladi. Shuningdek, Farg'ona shahrining Toshloq, Zarkent tumanlarining yoshlari bilan ham uchrashuvlar o'tkazildi. Quva shahrining A.Navoiy nomli 84-davolanish sihatgoh-internatida davolanayotgan o'quvchilar bilan ham uchrashgan Rayosat qatnashchilari ularga yaratilgan sharoitlar bilan, boshlang'ich Bolalar tashkiloti yetakchisi Madina Jo'rayevanining ish jarayonini olib borish tartibi bilan tanishdilar. Internat o'quvchilarining Respublika Bolalar tashkilotiga a'zo bo'lgan internat o'quvchilarini Tashkilot raisi Q.Quranboyev samimi qutlab, o'z dil so'zlarini bildirdi. Yetakchi Madina Jo'rayevaga Bolalar tashkilotining a'zolik ko'krak nishonini taqib qo'ydi. «Ona va bola» reabilitatsiya markazida davolanayotgan öna va bolalar sog'lig'idan xabar olinib, mutaxassislarining olib borayotgan ishlari hamda ularga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishildi.

So'ngra Rayosat qatnashchilari Ahmad al-Farg'oniy haykali poyiga gulchambarlar qo'yib, tarixiy obidalarni ziyorat qilishdi.

O.JO'RAYEV tayyorladi.

Prezident asarlarini o'rgananiz

MILLIY ISTIQLOL G'OVASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

—xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;

—jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;

—ota-on, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;

—millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;

—kattaga—hurmat va kichikka—izzat;

—mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi—ayol zotiga ehtirom;

—sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

—halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

—qonun ustuvorligi;

—inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;

—turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;

—diniy bag'rikenglik;

—dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;

—o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Milliy istiqlol mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, har bir oila va fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va Vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi.

(Davomi bor.)



30 YILGA TEGLI



Avlodlarga yetkazaylik

«Til bayrami»ni 1989 yildan buyon nishonlab kelmoqdamiz.

Oramizda, Davlat tili o'zi nima uchun kerak? Faqat so'zlashish

uchunmi? deya sayoz fikr yurituvchilar ham yo'q emas. Mening fikrimcha, til bu davlatning, millatning asosiy belgilaridan biri. Shuning uchun bo'lsa kerak, 1993 yildan buyon kitoblarimiz kirill alifbosida emas, lotin alifbosida bosilmoqda. O'zbek tilida ijod qilishni ilk marotaba Mahmud Qoshg'ariy XI asrda boshlab bergan. Buyuk shoirimiz Navoiy ham, Furqat, Cho'lpon singari yozuvchi va shoirlarimiz ham o'z she'rlarida bu tilning ahamiyatini ko'klarga ko'targanlar. Jahondagi barcha aholi ingliz va rus tillarini o'rganishga harakat qiladi. Chunki dunyoning qaysi bir burchagiga bormang, bu tillarda so'zlashish mumkin. Agar biz ham o'zbek tili lug'atini boyitib borsak, u ham umumjahon tillaridan biriga aylanishi mumkin. Buning uchun ko'p izlanish kerak. Bugun maktablarda, Oliygochlarda «Til bayrami»iga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Kelajagimiz o'z qo'limizda. Burchimiz esa davlatimizni sha'nini ko'klarga ko'tarish, tilimizni sofigicha avlodlarga yetkazishdir.

Nazokat BOBOQULOVA,

142 - matabning 11-«B» sinf o'quvchisi.

Sinfda tanaffus
bo'lishi bilan darrov
to'polon avjga chiqdi.

Bir maktabdan qo'sh maktub

Hamma nimadir bilan mashg'ul, ba'zilar ko'chaga oshiqsan. Bitta partaga to'planib olgan bolalar futbol, qizlar esa nimalardir haqida bahslashar edilar. Ularni kuzatib turib, bugungi darsimiz mavzusi yodimga tushdi. Bugungi mavzu til haqida edi. Bilasizmi, biz hamisha bir-birimiz bilan suhbatlashamiz, bu biz uchun oddiy holga aylanib qolgan. Bir kunimizni ham qiziqarli suhbatlarsiz tasavvur qilolmaymiz. Til haqida yana nimalar deyish mumkin, deb xayolimdan o'tkazib turgan ham edimki, sinfga ona tili

DIL KALITI

ustozimiz

kirib keldilar va
hammayoq bir zumda tinchidi.

Dars boshlandi. Ustozimiz bizga til haqida shunday so'zlarni aytdilarki, ular kishini o'ylashga, fikr yuritishga chorlaydi.

-Avvallari rus tili fan sifatida, ona tili, adabiyot esa kam o'tillardı. A.Qodiriy, Cho'lpon, X.Olimjon, Oybek kabi adiblarimiz, hatto butun dunyo tan olgan allomalarimiz haqida bilmasdik. Bularning barchasi-Mustaqillik tufayli qayta tiklandi. Tilimizga Davlat tili maqomi berilganiga ham 13 yil to'libdi. Shu fursat orasida katta ishlar qilindi. Lotin alifbosiga o'tdik. Chet ellar bilan do'stona aloqalarda, fan va texnika rivoji, jamiyat taraqqiyotida, umuman hayotda tilning o'rni beqiyosdir. Zero, til aloqa vositali, bizning qurolimizdir.

Ularning so'zlarini eshitib mag'zini chaqishga urindim. Gohida bilib-bilmay tilimizga chet so'zlarni qo'shib buzib gapiramiz. Bunga o'rganib ketganimiz uchun befarqmiz. Nima bo'lganda ham biz ota-bobolarimiz orzu qilgan, ularning qoni, joni evaziga barpo bo'lgan yurda yashamoqdamiz. Shunday ekan, erkimizni, tilimizni qadriga yetaylik!

Malohat TO'XTAYEVA,

Akmal Ikromov tumanidagi

116 - matabning 8-«B» sinf o'quvchisi.

Yer yuzida 3000 ga yaqin millat bor bo'lib, har bir millatning o'z ona tilisi mavjuddir. Tabiiyki, bizning ham o'z ona tilimiz bor. U bizning faxrimizdir va g'ururimizdir. Mustaqillikka erishgandan so'ng,

Yurtboshimiz ona tilimizga ko'proq e'tibor berib, ona tiliga o'zbek tili

maqomini berdilar. Chet davlatlarga

O'Z TILIMIZNI
BILMAY TURIB...

chiqqanda


tilimiz bizga g'urur

bo'lib turadi. O'z ona tilisini

bilmagan odam, bir shoir ta'kidlaganidek, kim nima desa takrorlab aytadigan to'tiga o'xshab qoladi. Yana shuni aytib o'tishim kerakki, o'z tilini bilmagan inson xuddi qorong'u yo'lda adashib yorug'likka chiqa olmayotgan kishiga o'xshaydi.

Har birimiz ona tilimizni yaxshilab o'rganib, bilib, uni ardoqlasak, sevsak, o'shandagina o'z kelajagimizga zamin yaratgan bo'lamiz va kelajak avlodlar ham xuddi biz kabi o'z tillariga faxr va g'urur nazari bilan boqadilar.

Go'zalxon QOSIMJONOVA,
Toshkent shahridagi 116 - matabning 8-«B»
sinf o'quvchisi.



FUSUNKOR TILIM

Sirli-sehrli so'zlardan saralangan serjilo tilimsan. G'aroyib tafakkurlardan, ajoyib fikrlardan yaralgan mo'jizakor bilimsan. Ko'nglimga poklik, xayolimga musaffolik taratgan fusunkor gulimsan. Yo'llarimga yorug'lik, hayotimga esa ko'raklik baxsh etgan yorqin mayog 'imsan, ONA TILIM!

Sen O'zbekning shirin tiligina emas, balki uning o'zidirsan. Mardonavor so'ziyu charaqlagan sho'x ko'zidirsan, ONA TILIM!

Sen o'zingsan - men uchun yoqimli ertak. Sen o'zingsan - qalbimda lov yongan o'tli muhabbat. Tun yulduzga oshufta bo'lgani kabi sen ham buyuk Navoiy nazmiga beshik bo'lding, ONA TILIM!

*Feruza MURODOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi
22-o'rta mактабning
11-«A» sinf o'quvchisi.*

Xayolparast G'ulomni bo'limg'ur fikrlardan chalg'itish maqsadida onasi unga:

-Kimda kim uch kun mobaynida xayol surmay, har xil o'ylarga berilmay, o'zini sinchkov tuta olsa, o'sha odam uch kundan

SEHRGAR G'ULOM

keyin sehrgarga aylanadi,-dedi.

G'ulom onasining gapiga ishonib, o'zini tetik tutishga intildi. Bo'sh vaqtini kamaytirish uchun kitoblar o'qiy boshladidi. Navbatdagi kitobi «Ko'zboylamachilikni o'rganuvchilar uchun» deb nomlangan edi. U quyidagi so'zlar bilan boshlanardi: «Haqiqiy sehrgar umuman bo'lmaydi. Ko'zboylamachilar esa fizikaviy va kimyoviy hodisalarni amalga oshiradilar...»

G'ulom avvaliga ishonmadi, kitobni o'qib tamomlagandan keyingina barchasini anglab yetdi. Bo'sh vaqtlarini bekorchilikda o'tkazganidan afsus chekib, onasiga minnatdorchilik bildirdi.

*Sanobar JUMANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Amudaryo tumanidagi 11-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi.*

Assalomu alaykum «Tong yulduzi» gazetasi! Biz sening har bir soningni o'qib boramiz. Undagi maqolalar, boshqotirma-yu ertaklar bizni fikrlashga, baxslashishga chorlaydi.

O'tgan o'quv yilida sinfimiz bilan birgalikda senga obuna bo'lgandik. Yil davomida sahifalarining qo'lma-qo'l q i l i b

USTOZLARI HURMAT QILAYLIK

o'q i d i k .
Respublikamizdagi tengdoshlarimiz hayoti, o'qish va intilishlari bilan tanishib bordik. Bo'sh vaqtlarimizni ham maroqli o'tkazishimizga katta yordam berding. Bu yil ham hech ikkilanmay yana senga obuna bo'ldik. 2003 yilda ham sahifalaringda biri-biridan qiziqarli, mazmunli maqolalar, hikoya va ertaklar o'qib borishga umid qilamiz.

Qolaversa, ustozlarimiz ham gazeta-jurnallar o'qib turishimiz lozimligini uqtirishadi. Bizning yanada bilimdon, zukko bo'lishimizni xohlashadi. Shunday ustozlarimizdan Sojida Rashidovna, Mavjuda Mametovna, Nargiza Sa'dullayeva kabilarni har qancha maqtasak oz.

Aziz tengdoshlar, ustozlarni hurmat qilaylik. So'zlariga qulq solaylik.

*Aziza ABDUAZIZOVA,
Sadoqat ERGASHEVA,
Nilufar TURDIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi
14 - maktabning 6-«V» sinf o'quvchilar.*

...JEGORAL DILLEGQI

Til - millatning boyligi va beباho mulki. Til tufayli biz buyuk daholarimiz yaratgan o'lmas merosdan bahramand bo'lamiz. Shu kunlarda o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to'g'risidagi Qonun qabul qilinganiga 13 yil to'lishi munosabati bilan hamma yerda bayram va tantanalar bo'lib o'tmoqda.

Bizning Respublika Nafis san'at litseyimizda oktabr oyi «Ona tili oyligi» deb e'lon qilinib, qator tadbirlarni o'tkazib kelmoqdamiz. «Eng yaxshi insholar, qatralar, she'rlar» tanlovi e'lon qilindi. 5-8 sinflar o'rtasida ona tiliga oid kechalar yushtirildi.

Oylik oxirida Davlat tiliga bag'ishlangan adabiy kecha o'tkazilib, unda g'oliblar taqdirlanadilar.

*Shahnoza XODJONOVA,
Respublika Nafis san'at litseyining
8-«A» sinf o'quvchisi.*

Havas

Jajji qizaloqlar orasida qo'shiq kuylab, raqsga tushishni yoqtirmaydiganlari juda kam uchrassa kerak. Ular juda taqlidchan bo'lishadi. Taniqli raqqosalarning raqslarini berilib tomosha qilib, har bir harakatlarini o'r ganib olishga intilishadi.

Sevimli xonandamiz Yulduz Usmonovaning «Sharob» nomli qo'shig'i ohangiga monand ajoyib raqs ijro etib, san'at ixlosmandlari mehrini qozongan Irodaxon ham kechagina ulardek havasmand bir qizaloq edi. Onasi mashq qildirayotgan raqqosa qizlarga havas bilan boqib, ularning har bir harakatlarini o'r ganib olishga intilardi. Bugun esa uning nomi katta-yu kichikning tiliga tushdi. Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabini qizil diplomga bitirib, Mukarrama Turg'un boyeva nomli «Bahor» raqs dastasida ishlab kelayotgan Irodaxon bilan yaqinroq tanishish maqsadida uni suhbatga tortdik. San'at olamiga kirib kelishi, bolalikdagi orzulari bilan qiziqdik:

-Meni san'at olamiga yetaklagan insonlar ota-onamdir. Chunki ular san'at bilan hamnafas bo'lib kelishyapti. Oyijonim «Bahor» raqs dastasida ishlab yurgan kezlar mashqlar jarayonini diqqat bilan kuzatib

o'tirardim. Biri biridan dilbar, go'zal raqqosa qizlarga havas bilan boqib, ichichimdan ulardek bo'lishni orzulardim. Qanday kuy bo'lmasin, ohangiga monand raqsa

tanloving oliv mukofoti - «Gran Pri» sovrindori bo'ldingiz...

-Bu yutuqni nafaqat o'zimniki, eng avvalo meni san'at olamiga yetaklagan ota-onamniki, qolaversa, ustozlarim

O'zbekiston xalq artisti Ma'mura opa

Erga-sheva, «O'zbekiston» milliy

raqs birlashmasi bosh direktori, san'at arbobi Yulduz Ismatova, O'zbekiston xalq artisti Roziya Karimova, O'zbekiston xalq artisti Qodir aka Mo'minovlarniki ham deb bilaman. Bu mukofot zimmamiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklashini ham juda yaxshi bilaman.

-O'zingiz va oilangiz haqida ham gapirib bering.

-Oilada 4 kishimiz. Adajonim, oyijonim, men va ukam Isroil. Adajonim estrada sirk kollejida o'zbek raqsidan dars beradilar. 20 yil mobaynida «Bahor» ansamblida raqqosa bo'lib ishlab kelgan oyijonim endilikda nafaqada bo'lsalar ham hamon yosh raqqosalarga ustozlik qilib kelyaptilar. 5 - sinfda o'qiydigan ukamning san'atga umuman ishtiyogi yo'q. Kelajakda siyosatchi bo'lishni xohlaydi.

-Sizga o'xshagan raqqosa bo'lishni orzulayotgan qizaloqlarga tilaklariningiz.

-Qaysi sohani egallahmasin, eng avvalo komil inson bo'lishsin. Ustozlari, ota-onalarini hurmat qilishsin. Ularning o'gitlariga amal qilishsa, kam bo'lishmaydi.

Botir RAMAZON suhbatlashdi.

IROD.A.NI.NG "SHAROB"!

tushib ketishimni ko'rgan ota-onam 3-


sinfni bitirganimdan so'ng Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabining balet bo'limiga o'qishga berishdi. Keyinroq milliy raqslarni ham o'rgana boshladim. 14 yoshimda Mukarrama Turg'un boyeva nomidagi yosh raqqosalar ko'rikta nolivid aqtnashdim. Yoshim yetmaganligi sababli meni tanlovdan tashqari qabul qilishdi.

-Yaqinda sevimli xonandamiz Yulduz Usmonovaning konsertida ishtirok etib, maromiga yetkazib xirom ayladingiz. Taassurotlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

-12 kun mobaynida davom etgan ushbu konsertda qatnashishim tasodifiy bo'ldi. Bir kuni ustozim Karima opa Uzoqova telefon qilib, Yulduz Usmonovaning konsertida ishtirok etishni xohlaysanmi, deb so'raganlarida, to'g'risi, ishonmagandim. Ertaga «Xalqlar do'stligi» saroyida «Sharob» nomli uyg'urcha raqsni ijro etishimni aytib, gapni qisqa qildilar. Menga raqsni o'zlashtirishim uchun bir kun muhlat berishdi. To'g'ri Karima opaning uylariga borib, raqsni o'zlashtirdik. Ertasiga ijro etgan raqsim Yulduz opamga ham ma'quil bo'ldi. Shu tariqa konsertda ishtirok etdim.

-Iroda, shu yil Buxoroda o'tkazilgan Mukarrama Turg'un boyeva nomidagi Respublika yosh raqqosalar ko'rik-





- Toshkentga bir necha marotaba kelganman. Har gal poytaxtimizning ko'rkamlashib borayotganini his qilaman. Undagi buniyodkorlik ishlaridan

kollejga kirib o'qimoqchiman.

Buxorodagi tasviriy va amaliy san'at litseyida uch yildan beri o'qiyan. Litseyda biz o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

adabiyot fanlaridan to'rt baho olaman. Matematika fanidan qiynalaman. Shuning uchun ham ko'proq o'qishga harakat qilaman. Bu borada sinfdoshlarim- Mirzo

BUXORO KO'CHALARIGA O'XSHAB KETARKAN

zavqlanaman,- deydi Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi «Tasviriy va amaliy san'at» litseyining 8-sinf o'quvchisi Oybek Shodihev.- Yangi qurilgan O'zbekiston Davlat Konservatoriya binosini, Yunusobod metro bekatlarini ko'rdim. Eski shahar xuddi Buxoro ko'chalariga o'xshab ketarkan.

Bundan tashqari, dadam bilan birga Toshkentdag'i tasviriy va amaliy san'at kollejiga ham bordik. O'sha kuni yozuvchi Tohir Malik bilan kollej talabalarining uchrashuvi yushtirilgan ekan. Talabalarga juda havas qildim. Nasib bo'lsa, men ham kelgusi yili mana shu

Shinamgina yotoqxonamiz, oshxona va sinflarimiz doimo ozoda, saranjom sarishta.

Mehribon va talabchan tarbiyachimiz-rus tili o'qituvchisi, Mahsuma Ahmedovna doimo biz bilan birgalar. Biron bir muammoli gapimiz bo'lsa, ular bilan birgalikda hal qilamiz. Kerakli maslahatni berishga hamisha tayyorlar. Tasviriy san'atni bizga sabr-toqat bilan o'rgatayotgan ustozimiz Naim Saidovni ham barchamiz juda yaxshi ko'ramiz.

Men ko'proq portret chizishni, tabiat manzaralarini ifodalashni yaxshi ko'raman. Nanamni, ya'ni onamni, dadam u bibimning suratlarini

chizganiman. Maqtanishga yo'ymangu «juda o'xshatibs'an, barakalla» deb aytishgan. Dadam ham rassomchilikka qiziqadilar. Har bir chizgilarimni diqqat bilan kuzatadilar. Vaqt-vaqt bilan imtihon ham qiladilar.

O'qishlarimga kelsak, rang tasvir, qalam tasvir, kompozitsiyadan besh baho, fizika, kimyo, matematika,




Shodihev, Firdavs Zoirov, Navro'z Shukurov kabilar hamisha yordamga shay.


Sinfimizda 22 nafar o'g'il va 4 nafar qizlar o'qiydi. Sinfimiz ahil, do'st-o'rtoq. Shuning uchun ham darslarimiz qiziqarli, tadbirlarimiz quvnoqlik bilan o'tadi.

Yaqinda, to'g'rirog'i, o'qituvchilar bayramida litseyimizda katta bayram tadbiri o'tkazildi. Unda ustozlarimiz uchun devoriy gazeta tayyorladik. Eng yaxshi devoriy gazeta tayyorlashda bizning sind uchinchi o'rinni egalladi. Bundan ustozlarimiz ham juda xursand bo'lishdi. Kelgusida yanada faolroq bo'lishga so'z berdik.

A. ABDULLAJONOV
yozib oldi.



O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining yangi binosi.



Qishlog'im manzarasi.

BIR XATONING ACHCHIQ MEVASI

Kunlarning birida dadajonim jajji o'rdakchalar olib keldilar. Ular shunaqangi shirin, ajoyib ediki, hamma havas qilardi. Men ularni parvarishlay boshladim. Har kuni suv, don berib, ochiq havoda sayr qildirardim. Ular bilan vaqtim juda ham quvnoq o'tardi. Lekin haftalar, oylar o'tishi bilan ular jonimga tega boshladi. Har kuni oyimning eslatmalari bilan ularga yemish berardim. Ularga bo'lgan mehrim ham avvalgidek emasdi...

Bir kuni odatdagidek ularni ko'chaga olib chiqib, o'zim koptok o'ynay boshladim. Bir payt tepgan koptogim sariq o'rdakchaning oyog'iga qattiqroq tegdimi, u oqsoqlanib yura boshladi. Men esa unga achinmadim ham. Oyimning topshiriqlari bilan uni alohida parvarish qila boshladim. U esa do'stlarisiz alohida yashashni xohlamasdi. Biz uni o'rdaklarga qo'shishga majbur bo'ldik. Oyog'i esa haligacha tuzalgani yo'q. Xatoimning achchiq mevasini endi ko'ryapman. Do'stlaridan ortda qolmaslikka intilib, sakrab-sakrab yurayotgan, tirishib-tirmashib yashashda davom etayotgan o'rdakchamga juda rahmim kelyapti. Qilgan ishimdan pushaymonman, lekin endi kech.

Bu voqeani bejiz yozmadim. Tengdoshlarim ham mening xatoimni takrorlamasliklarini istayman.

Uchqunbek ODASHBOYEV,
Toshkent viloyati, Toshkent
tumanidagi 30 - mактабнинг
4-«V» sinf o'quvchisi.

Onajonim tabiat

Tabiatni onajon deb ataymiz, uning quchog'ini munis onalarimiz bag'riga qiyoslaymiz. Fusunkor, beramiz. O'zimizni uning ajralmas bir hisoblaymiz. Lekin uning musaffoligi, doim ham jon kuydiravermaymiz. Jonivorlarni do'stimiz deymizu ham mehr ko'rsatavermaymiz...

Sahifamizda hikoya va etilgan tengdoshlarining esa haqiqiy do'stlari deb atash nima deysiz?

jilvakor deya ta'rif bo'lagi, deb himoyasi uchun har Parranda-yu ularga hammamiz rasmlari chop tabiatning mumkin, menimcha. Siz

BAG'RITOSH TOHIR

Ko'chamizda Tohir ismli bir bola bor. U hammaning iti, mushugi, tovuqlariga ozor yetkazib yuradi. Qo'shnimizning jajjigina mushukchasi bor edi. Bir kuni shu mushuk ko'chaga chiqib ketibdi. Uni ko'rib qolgan Tohir tutib olib, tepib, devorga otib rosa qiyabdi. Bir burchakda ingrab yotgan mushukchani egasiga olib kelib berdik. Egasi mushukchani joyiga yotqizib qo'ydi. Tohirni esa rosa koyidi. Tohir qilgan ishiga pushaymon bo'lish u yodqa tursin, tanbehlarni xuddi eshitmagandek

uyiga kirib ketdi. Mushukcha uch kun bazo'r yashab, o'lib qoldi. Bizunga rosa achindik...

A z i z
tengdoshlarim,
hayvonlarga ozor
bermaylik, Tohir
kabi bolalardan
o'mak olmaylik.

Nargiza
TUROPOVA, Toshkent viloyati,
Zangiota tumani.



Oppoq tulporim.

QUYON

Juda barvaqt turasan,
Dik-dik sakrab yurasan,
Goho hayol surasan,
Shalpangquloq quyonim.
Ranging kulrang, qora-oq,
Bisyor g'ayrat, ishtiyooq,
Mana sabzi, menga boq,
Mening momiq quyonim.

TABJAT

Onajonim tabiat,
Senda bor ajib hislat.
Senda to'rt fasl bordir,
To'rt olam senga yordit.
Bahor fasling uyg'onish,
Yasharish yangihanish.
Yoz fasling chroy ochar,
Quyosh zarin hur sochar.
Kuz fasling sekin bo'lar,
Bog'lar lazzatga to'lar.
Qish fasling borliq oppoq,
Qor-la qeplana mutloq.
Asragaymiz seni biz,
Suving, bog'nrog laring.
Polizingu uzamzon,
Qiru adir, tog'lariifg.

Shahzoda RIZAYEVA,
«Orom» nomli bog'cha-maktabning
4- «J» sinf o'quvchisi.

Ne'mat ota bog'iga mevali daraxtlar ekib, har kuni suv quyib, parvarish qila boshladilar. Mahalladagi bolalar ham Ne'mat otaga yordam berishdi. Lekin Bahodir ismli bir bola otaga yordam berish o'rniغا daraxt shoxlaridan sindirib, o'ziga kamon yasab olibdi. Buni ko'rib qolgan Ne'mat ota:

-Bolam, nega daraxtlarning shoxini sindirasan? Axir bu shoxlar bir kun kelib meva beradi-ku, - debdilar.

Bahodir bu gaplarga ishonmadi. Chunki uning nazarida oddiy bir cho'p meva bermas edi. Bahodir o'z bilganidan qolmay, daraxtlarga ozor beraverdi. Ne'mat ota uni koyisa ham ta'sir qilmadi. Oradan uch-to'rt yil o'tgandan keyin Ne'mat ota ekkан ko'chatlar hosilga kirdi. Bu mevalardan qo'shni bolalar ham

*Sahifalarimizni tengdoshlarining Nurxon BOZOROVA (qashqadaryolik),
Qizlarxon YO'LDSHEVA, Hilola*

*ABDURAHMONOVALar chizib yuborgan rasmlar
bilan bezatdik.*

Bir kuni dadam meni yonlariga chaqirib:

- Qaragin, - deya

VAFODOR ITIM QOPLON

katta sumkani ko'rsatdilar. Sumkaning ichiga sekin qarasam, kichkinagina kuchuk bolasi. Sevinib ketdim. Darrov qo'limga olib:

-Otini Qoplon qo'yamiz, -dedim.

-Nega aynan Qoplon? - so'radilar dadam.

-Chunki uning qoplondek jasur bo'lishini xohlayman...

Kunlar ketidan oylar o'tib, Qoplon juda chiroyli it bo'ldi.

Bir kuni hovliga chiqsam, Qoplon inida yo'q. Berkinib olgan bo'lsa kerak, deb

o'ylab qidira boshladim. Topolmay ko'chaga chiqdim, ko'chada ham

yo'q. Nima qilishni bilmay yig'lab



boshlashdi.

Kech kirib qoldi hamki, undan darak yo'q edi. Tong otishi bilan yugurib ko'chaga chiqdim. Shu payt ko'cha tarafdan itning tovushi eshitildi. Ne ko'z bilan ko'rayki, Qoplon yugurib kelyapti. Uni quchoqlab oldim.

Keyin bilsam, uch-to'rtta bolalar uni o'g'irlab ketishgan ekan. Hozir yana sevimli Qoplonim bilan birgaman.

*Malika
ABDUVOHIDOVA,
Toshkent shahar,
Yunusobod tumanidagi*

*12 - matabning
8-sinf o'quvchisi.*

ONA - TABIAT

Tabiat bizga ona, Biz uning farzandimiz. Boshimizda parvona, Arzanda dilbandimiz. Farzand bo'lib biz unga, Nima qildik ayt o'rtoq. Rozimikin bizlardan, Buni ham bir o'ylab boq. Tabiat bo'lsa bir bog', Sayroqi bulbulimiz. Bo'lsa-chi u qiru tog', Xushbo'y atirgulimiz. Barchamiz ahil bo'lib, Bog'-rog'lar yarataylik. Tabiatga e'tibor, Mehrimiz qarataylik. Safga qo'shilgin tezroq, Chetda qolma, ey o'rtoq!

*Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi*

*169 - matabning 6-«G» sinf
o'quvchisi.*

MUSHUKCHA

Bahor oylarining birida qo'shnimiz Malika xolaning mushuklari bolaladi. Oradan bir hafta o'tdi. Men hovlini supurayotib, yerdagi jajjigina mushukchaga ko'zim tushdi. Bu Malika xolaning mushuklari edi. Uni qo'lga oldim va Malika xolaning uylariga chiqdim. Chiqsam, ular yo'q ekanlar. Uyga qaytayotib, dugonam Azizani

k o ' r i b
q o l d i m .
A z i z a
m u s h u k n i
q o ' l i m d a n
o l i b , a s t a
s i l a d i . Shu

payt qayoqdandir uning kuchugi Oqtosh kelib qoldi va mushukka qarab vovullay boshladidi. Aziza kuchukdan qo'rqdimi, mushukchani darhol daraxtga qo'ydi. Mushukcha ham daraxtga asta o'rmalab chiqib ketdi. Shu-shu mushukcha akalari-yu opalaridan oldinroq daraxtga chiqishni o'rganib oldi.

*Dilrabo YUNUSOVA,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov
tumanidagi*

249 - matab o'quvchisi.

Qo'sh sahifani Nargiza AKBAR qizi tayyorladi.



ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Davomi.

Boshi o'tgan sonda.)

28 yoshli Linney Leydenda o'zining «Tabiat tizimlari» asari qo'lyozmasini botanik Gronoviusning hukmiga

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.**

Abu Shukur Balxiy

havola etdi. Golland olimi esa, tadqiqotdagi ilmiy teranlikdan hayratga tushib, qo'lyozmani darhol o'z

Mayl (instinkt) yotadi. Har qalay, nima bo'lishidan qat'iy nazar, u barcha narsada tasniflovchi edi.

«Uning jamiki gap so'zlariyu xatti-harakatlari ham muayyan harakatga bo'ysundirilgan, ya'ni tizimlashtirilgan edi», deb yozadi olim haqida uning

zamondoshi shved yozuvchisi Fabritsius.

Buyuk botanik o'zining shu sohaga oid juda ko'plab asarlaridan tashqari

olimlar ham Linneyni o'lgudek yomon ko'rishardi. Biroq oliyjanob shved ularning barcha hamlalariga nisbatan pinagini ham buzmasdi.

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli


BOTANIKLAR QIROQI

hisobidan nashr ettirdi. Yana omadi kelibdi, deyayotgandirsiz, hoynahoy. Ha, omadi keldi. Ammo buning uchun eng kamida muallifning hayotlik chog'ida 15 martagacha nashr etiladigan kitob yozish kerakda, avvalo!

Bu kitob tizimlashtirish va tasniflash bo'yicha Linney asarlarining ulug'vor qasri poydevoriga qo'yilgan eng birinchi g'isht bo'ldi. XIX asr kimyo fani uchun Mendeleyev jadvali qanchalik muhim hisoblansa, XVIII asr tabiatshunosligi uchun Linneyning kitobi shunchalik rol o'ynadi. Bu qiyosni yanada chuqurlashtirish mumkin edi, biroq uning tizimlashtirish prinsiplarini tushuntirish ba'zan qiyin ekanligini Linneyning o'zi aytib turibdi-da! «Marhamatli Gizeki, -deb yozadi olim bir maktubida, -siz mendan bo'limlarning o'zaro farqlanish belgilari qandayligini so'rabsiz. Biroq tan olib aytishga majburmanki, men ularni tushuntirib berolmayman».

Mendeleyevning tasniflari asosida nazariya, tafakkur yotsa, Linneyning tasniflari asosida biograflaridan birining iborasi bilan aytganda «Oliy

botanikaga oid hamma kitoblarining mualliflarini ham tasniflaydi. Hatto



geologoiq namunalar, chig'anoqlar, ma'danlar, hayvonlar, qushlar, sudralib yuruvchilar, baliqlar, hasharotlar, chuvalchanglarni ham tasniflashga kirishadi. Uning tizimlarida hatto inson ham borki, bu o'sha davr uchun benihoya katta jasorat edi! Fransuz faylasufi La-Mettriy Linney tizimida odam otning qatoriga qo'yilganini ko'rib, jahl ustida, «Uning o'zi ot!» deb xitob qilib yuborgani ham bejiz emas. Shunda uning yonida o'tirgan mutafakkir Fransua Volter darhol «agar Linney ot bo'lsa, demak, otlarning eng zo'ri» deb javob qaytargan.

La-Mettriydan tashqari mashhur zoolog Byuffon va ayrim boshqa

yashirib bo'lmaydi. Men hammasini kelajak avlodlar hukmiga havola etdim». Lekin Linney raqiblaridan jindek hazil aralash o'ch olgan paytlar ham bo'lgan. Masalan, zaharli bir o'simlikni u Byuffoning nomi bilan atadi. «Agar men ham shunday qila oлganimda, -deb xitob qilgandi Jan-Jak Russo, -bir necha kun baxtli yashardim va yillab xotirjam hayot kechirardim!»

Ming bora afsuslarki, Gollandiya hamda Fransiyada dong taratgan olim o'z vatani Shvetsiyada oddiy va hech kim tanimagan bir hakimga aylanib qoldi. Taqdirning bu o'yinini haddan ziyod adolatsiz deb qabul qilgan Linney hayotidan o'kinib, shunday deb yozadi: «Men Stokgolmda joylashdim. Botanikam ustidan hamma kuladi. Bu yo'lda qanchalar mashaqqat chekkanim, qanchalab kunlarni bedor o'tkazganim hech kimning yodiga kelmaydi... Hakimlik qila boshladim, ammo ishim yurishmadi: biron-bir odam mening qo'limdan hatto xizmatkorlarini davolatishni istamasdi. Biroq tez orada omadsizliklar barham topdi.

(Davomi bor.)

Hayot saboglari

«Boshingga ne balo yog'sa, birovdanmas, o'zingdan ko'r», deb kuylanadigan qo'shiq bor xalqimizda. Nazarimda bu qo'shiq aynan menga bag'ishlangandek...

Nimadir sabab bo'lib, boshing devorga urilganda, endi kech bo'lganini anglab yetarkansan kishi.

Yoshim bir joyga borib qoldi. Kechalari boshimni yostiqqa qo'yishim bilan yo'tal tutadi, deng. Yo'talaveraman, yo'talaveraman, oxiri o'qchib-o'qchib ketadigan bo'lib qoldim. Go'yo o'pkam ko'kragimga tiqilib qolayotgandek, qattiq

KO-ZLARIM

og'riq beradi. Bu

kasallik tufayli tunu kun halovatimni butkul yo'qotdim. Zo'riqishdan bo'lsa kerak, ko'zim oldi xiralashib qoldi. Ko'kragim og'rig'iga yelkam aralash ikki kuragim osti og'rig'i ham qo'shildi. Shifokorimiz kelib «Ko'p chekasiz-da, bu faqat ana shu kashandalikning asorati», deydi.


Haqiqatan ham, bolaligidanoq chekaman. Vaqtida ota-onam xo'p yaxshi nasihatlar qilishgan. Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay...

O'sha paytlari ko'p uylarga hali elektr chirog'i kirmagan, lampa yoqilardi. Mahallamizdagi do'konga lampamoy keltirilguniga qadar navbat cho'zilib ketardi. Navbatga aksariyat konserva bankalari-yu ishga yaroqsiz shishalar qo'yilib, bo'r bilan navbat raqami yozib qo'yildi. Ularning orasida mening 10 litrli idishim o'zgacha savlat to'kib, navbatda birinchi bo'lib turardi. Bir payt o'rtoqlarim «Dadangning tamakisidan olib chiqmaysanmi, bir tortardik-da», deb qolishdi. Ular dadamning tamakini

yupqa qog'ozga o'rab chekishlarini bilishardi-da. Men «g'ir» etib uyga kirib, dadamga sezdirmay, tunuka qutichadagi tamakidan kaftimni to'ldirib olib, yugurgancha kelsam, navbatda hech kim qolmabdi. Do'kondor kelib: «Bugun lampamoy bo'lmas ekan», debdi. Hamma o'z idishini olib, tarqab ketibdi. Kimdir mening idishimni ham olib ketib qolibdi.

T a m a k i
so'ragan o'rtoqlarim
ham ko'rinishmadi.

Nima qilarimni bilmay qoldim, uyga



kirishga yurak betlamaydi. Ota-onam qanchalik mehribon, rahmdil bo'lishmasin, rosa adabimni berishgandi. Otamning g'azabini qo'zg'atgan narsa qutichadagi barmoqlarimning o'rni ekanini keyinchalik bildim. O'shanda yaxshigina ta'zirimni yegan bo'lishimga qaramay, o'rtoqlarimga qo'shilishib chekib, bora-bora kashandalikni odat qilib olgandim. Mana hozir jabrini tortyapman.

Bolajonlarim, xalqimizda «Tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib» degan oqilona ibora bor. Shunday ekan, sizlarga ikki og'iz nasihat qilmoqchiman. Shoyad, men qilgan xatolarni

KECH OCHILDI!...

sizlar

takrorlamasangiz:

Ota-onangiz, ustozlaringiz ko'zlarini shamg'alat qilib, panapastqam yerdarda chekishni odat qilrang. Aks holda, yoshgina umringizga jabr qilasiz. Keksayganda men kabi afsus-nadomat qilib qolasiz. Lekin bu paytda juda kech bo'ladi.

Mustaqillik quyoshi nuridan bahramand Respublikamizning ravnaqi, kelajagi siz aziz yoshlarning qo'lingizda ekanligini unutmang. Kuni kecha xalqimiz katta umidlar bilan yoshlарimizning katta bir guruhiga «Taraqqiyot sari» atalmish 11-dovon estafetasini topshirgan bo'lsa, fursati kelib, sizlarga ham estafeta tayog'i topshiriladi. Buning uchun esa birinchi galda sog'lom bo'lishingiz kerak. Shunday ekan, aziz farzandlarim, salomatlik kushandas - kashandalikni havas qilrang. Chekayotgan bo'lsangiz, vaqtida bunday bemaza havasning bahridan o'ting. Axir, keyingi pushaymon, o'zingga dushman, deb bejiz aytilmagan-ku.

Shifokorlarining tahliliy jarayonlaridan so'ng, saraton kasalliklari institutiga bergan yo'llanmasini qo'limga olgach, o'z boshimdan kechirganlarim haqida siz aziz bolajonlarga qarata murojaat qilishga jazm etdim.

Istagim, hech kim mening holimga tushmasin, hech kim bedavo dardga yo'liqmasin!

*Jahongir ABUBAKIROV,
mehnat faxriysi.*

Ustoz ijodi

Zuhra YANGIBOYEVA Beruniy tumanida tug'ilib, Nukus Davlat Universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini tugatgan ustoz, dastlab o'z tumanidagi 61 - o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishladi. Hozir esa 12 - maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lif muassasasi rahbari. Bolajon ustoz qalbi she'r dardida yonadi. Yozganlari Respublika va tuman gazetalarida tez-tez chop etilib turadi. O'tgan yili «Ixlos» nomli she'riy to'plami ham o'quvchilar qo'liga borib tegdi. Biz ustoz ijodiga yutuqlar tilab, quyida uning o'z ustozlariga bag'ishlagan she'rlaridan namunalar beramiz. Ezgu tuyg'ularga hamroh insonga hamisha ko'tarinki va xurram kayfiyat yor bo'lsin. Qolaversa, uning barakali ijodiga shogirdlarining a'lo xulq va hayotdagi yutuqlari qo'shganotdir.

SIZNIKI XALQ QUVONCHI, DARDI...

Sizni ki xalq quvonehi, dardi
Qilgan ekan sizga baxt nasib.
Quyosh kabi ko'kka ko'tardi,
Nomingizni bu sharafli kasb.

Siz-la kimlar chiqardi savod,
Qolmas yerda o'gitlaringiz.
Ishingizni qildirar davom,
Oqil zukko shogirdlaringiz.

Qo'lingizda bor ekan imkon,
Yer yuzida qolmas heen tugun.
Gullayotgan bu go'zal makon,
Siz-la o'sib ulg'ayar ou kun.

USTOZ

Shoira Gulchehra Rahimovaga
Hayot o'zi dono munajjim...
Mag'lub qildi ko'zlardagi nam.
Oldingizda sukut saqlab jum,
Aytolmayman bilganimni ham.

Bilar til lol, o'zini oqlab
Lek yuraklar qilar barin his.
G'uncha lablar sukutni saqlab,
Aytolmaydi ko'rganlaringiz.

Yetmish yilda forig' gunohdan,
Hurlikka g'isht qo'yayapmiz biz.
Bunyod qilib otash nigohda,
Shod hayotni tuyayapmiz biz...

MA'NAVIYAT

Beruniy Tuman Xalq Ta'limi
Bo'limi mudiri E.Hasanovga
Kelajakka qo'yilgan tamal,
Toshi erur ilm chashmasi.
Ustozlarda dasturil amal,
Ma'naviyat hamma-hammasi.

Yosh nihollar safin to'ldirib,
Yashashar jon achitib, koyib.
Avlodlarni barkamol qilib,
So'ng o'zları ketishar boyib.

She'riyatga qadam tashlagan,
Yosh nihollar bog'boni ham u.
Kelajakni Haqqa boshlagan,
Al-Beruniy charog'boni u.

Qalbga dunyo eshigin ochgan,
Muhabbatin yo'qdir qiyosi.
Shuurlarga pok ziyo sochgan,
Ko'zlarida ilm ziyosi.

Qancha egik qadni rostladi,
Ustozdag'i bilimga da'vat.
Uning nomi chidam, sadoqat,
Mash'alasi chin-ma'naviyat!

SIYMO...

Qoshu-ko'zlarimiga ko'pdan dur sochgan.
Biz uchun quyosh boqiy muhabbatdir.
Erta bolalikdan ko'zimni ochgan,
Dalalar otamdek bir salobatdir.

YURAKDAGI

Chin uyg'onish sezilar xalqda,
Tilaklarim bo'lsa ijobaq.
Yurt kamolin so'rayman Haqdan,
Har kun tongda qilib ibodat.
So'rар bizdan bir oq'iz birlik,
Tushib yerga osmon yetti qat.
Bitta Haqqa boshlagan Hurlik
Yurakdagi iymon, e'tiqed!

QIYOTIM - HAYOTIM

Shukr bugun Ollohga shukr,
O'sdi xalqning singan qanoti.
To'rt qit'aga taratmoqda-nur,
Qolgan esdan chiqmag'an yodi.
Topdi haqiqatning izini,
Kechgan bugun kamtar hayotim.
Biz hech kimiga bermaymiz seni,
Qizim degan go'zal Qiyyotim!

SINFXONADA

Yetar dilda baxtdan o'rgilib,
Ohangi bor rangi bor har so'z.
Saboqlarim tinglar berilib,
Termulgancha o'ttiz qora ko'z.


Yonar Ichda dukurlab yurak,
Savol-javob qilar dil asir.
Bilganimni o'rgatishini shart,
O'ttiz taqdir qo'limda axit.

Bizning to'garak

YURTIM MADHI

Yurtim sening madhingni,
Kuylamoqqa haqqim bor.
Mustaqilsan, ozodsan,
Go'zalsan ko'r kam diyor.
Izlanuvchan yoshlaring,
Qilar ertangni porloq.
Tarixingdan so'zlasam,
Bo'lur barchasi saboq.
Boshga qo'ngan baxt qushing,
Omad keltirsin o'lkam.
Har o'g'lonu har qizing,
Bo'lsin sergak va o'ktam.

Oynisa BOZOROVA,
Buxoro viloyati, Jondor
tumanidagi 31 - o'rta mактабнинг
8-«V» sinf o'quvchisi.



ORZULARIM OYGA AYTAMAN

Orzularim jo'shqin, go'yoki daryo,
Millionlab odamni sig'dirgan dunyo.
Mening orzularim sig'maydi go'yo,
Orzularim oyga qarab aytaman.
Oy to'lгandek men kamolga to'lsaydim,
Elim sevgan shoirsa qiz bo'lsaydim,
Zulfiyaxonim iziga iz bo'lsaydim,
Orzularim oyga qarab aytaman.
Qalblarimga sig'mas bu orzularim,
Umid bilan boqar porloq ko'zlarim.
Orzular taftidan qizil yuzlarim,
Orzularim oyga qarab aytaman.

Zebi SAIDOVA,
Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi
31 - mактабнинг
9-«A» sinf o'quvchisi.

«Istiqlol umidlari» to'garagimiz nomiga
Buxorodan kattagina xatjild keldi. Unda
to'garagimizning sirtqi a'zolari - buxorolik
ijodkor tengdoshlaringiz o'z she'riy
mashqlarini yuborishibdi. Ularning Vatan
iftixori, tug'ilib o'sgan go'shalariga cheksiz
mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan sug'orilgan
she'riy mashqlarini siz ham bir o'qib ko'ring.



BUXOROI SHARIFIM

Ona shahrim Buxoro,
O'zbek yurtiga oro.
Uni sevaman jondan,
U muqaddas qadamjo.
U ko'hna va navqiron,
Ko'rganlar qolar hayron.
Nomi olamga ketgan,
Ilmu donishlarga kon.
Yashnayversin gulshaning,
Oshaversin qudrating.
Kelajak avlodning ham,
Boyitsin shon-shuhrating.

Shahnoza XASANOVA,
Buxoro viloyati,
1 - akademik litseyining 301-guruh
talabasi.

O'ZBEK TILIM

Bu tilda Navoiy dardin kuylagan,
Bu tilda shox Bobur «noma»sin yozgan.
Buyuk Temur bobom «Tuzuk»larini,
Boshqa tilda emas, shu tilda tuzgan.
Tabobat ilmining sultoni Sino,
Turkiycha so'zlashib, ham ardoqlagan.
Mirzo Ulug'begu Al-Xorazmiy ham,
Tilga sodiq qolib, uni saqlagan.
Aziz Vatan kabi jonajon tilim,
Aziz xalqim kabi qadrondon tilim.
Seni e'zozlayman, senga ehtirom,
Sen desam, quvonchdan yayraydi

dilim.

Laylo ALIMOVA,
Buxoro shahridagi 34 - son o'rta
umumta'lim maktabi o'quvchisi.



Alla KUYLAGAN
TILIM

Alla kuylab bolaga,
«Yo'q» deb aytgan nolaga.
Muqaddasdir shuni bil,
Asl va sof ona til.
Ajdodlarimdan meros,
So'zlasam, yayar dilim.
Boyib, sayqal topaver,
Purma'no ona tilim!

Umida AHMADXO'JAYEVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
18 - mактабнинг 7-«D» sinf
o'quvchisi.

SHE'RIyat

She'riyatning bo'stoni,
Chorlar meni o'ziga.
Sehrlanib qolaman,
Shoirning har so'ziga.
Goh o'ynoqi, goh g'amgin,
Misralar rom etadi.
Qaynoq hislar taftidan,
Ko'nglim erib ketadi.

JASORAT

Chirqillaydi jazzi chumchuq,
Bolasiga yemak tashib.
Mittigina jussasiga,
Tashvishlari oshib-toshib.
Undan ibrat olsak arzir,
Kelajakka intilgan dam.
Mashaqqatli bo'lsa hamki,
Bosmoq kerak dadil qadam.

Dilafro'zbonu USMONOVA,
Toshkentdagi
169 - mактабнинг 6-«V» sinf
o'quvchisi.



MEHNAT DARSIDA

O'qituvchi:

- Mana bu biz kiyib yurgan kiyimlarning ko'pchiligi paxtadan, ba'zilari jundan, ipakdan tikilgan. Dildora, qani ayt-chi, sening ko'ylaging

nimadan tikilgan?

- Paxtadan.

- Barakalla, Muxtor, sening shiming nimadan tayyorlangan?

- Xolamning eski yubkalaridan...



TARIX DARSIDA

O'qituvchi:

- Qodirov, Shayboniyxon Samarqandga qachon yurish qilgan?

O'quvchi:

- Men qayerdan bilay? U paytda hali tug'ilmagan edim.

Durdona AVAZOVA,

Toshkentdag'i 85 - matabning 8-«A» sinf o'quvchisi.

Maktabdan uya qaytayotgandim. Muyulishda og'zi bog'langan bir xaltacha turardi. Uning ichida esa bir nima qimirlardi. Qiziqishim ortib, uni k u z a t a boshladim.

XALTAJADAGI

N i m a
b o ' l i s h i

mumkin? Kalamushmikan, birov tashlab ketgan bo'lsa kerak. Yerda yotgan kaltakni olib, xaltani ohistagina turtdim. Uning ichidagi «nimadir» kaltagimni tishlab oldi. Men orqaga siljidim. Qo'limga tosh olib endi xaltachaga otmoqchi bo'lib turgandim, uydan oyim chiqib qoldilar.

- Ha, qizim, nima qilyapsan?

- Manavi xaltacha ichida bir nima qimirlayapti.

Oyim hayron bo'lib, xaltachani ushlab ko'rdilar. Hech nimaga

tushunmagandek yelka qisib, sekingina og'zini ochdilar. Uning ichidan dumaloqqina, momiqdek kuchukcha chiqdi. U to'yib-to'yib

KUCHUKCHA



n a f a s
oldi-da,
j i m
turaverdi.
Kuchukchani nobud qilish niyatida havo o'tkazmaydigan xaltachaga solib, og'zini bog'lab qo'ygan odamdan nafratlanib ketdim. Uyga olib kirib, sut, non berdim. U ham tez orada menga o'rganib qoldi. Kuchukchani hayotga qaytarganimdan xursand edim.

*Surayyo QAYUMOVA,
Andijon viloyati, Ulug'nor*

tumanidagi Sadreddin Ayniy nomli
11 - matabning 8-«A» sinf o'quvchisi.

TINCHLIK XATI


Dadam bugun bozordan, Olib keldilar pufak. Singlim ikkimiz unga, Yozdik ko'p ezgu tilak. Bolalar o'ynab-kulsin, Dunyo doim tinch bo'lzin. Hamma inoq, do'st bo'lzin. Borliq gullarga to'lzin. Xatni pufakka solib, Rosa puflab shishirdik. «Olislarga uch!» deya, So'ng osmonga uchirdik.

Xusan NIZOMIDDINOV,

Toshkent shahridagi

*100 - maxsus maktab internatining
6-«A» sinf o'quvchisi.*

*«Lyudvig Van Beethoven»
suratini tengdoshingiz -
Qarshi shahridagi
32 - matabning 7-sinf
o'quvchisi Nurxon
BOZOROVA chizib
yuboribdi.*



Qatralar

QOSH VA KIPRIK

Qosh koshondir, kiprik esa uning tig'li paykon. Bu qurol egasi agar kamonini ishga solsa, undan uchli nayzalar emas, o'tkir nigoh uchib borib, asirining yuragini yaralaydi.

TIL

Til - kechagina sendan qand totgan edim. Sening asaldan ham totli ekaningga iymon keltirgandim.

Lekin mana bugun boshimga kulfatlar solding va dunyoda sendan ham o'tkir zahar bo'lmasligiga butunlay ishondim.

Xohlasa tomdirib bol,

Qulflarni ochar dil.

Xohlasa ilon bo'lib,

Bitta-bitta chaqar til.

Xolida LAKBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi

*Nafis san'at litseyining
adabiyot bo'limi o'quvchisi.*

Tengdoshlarining ijodi

MISRALARIGA ISHOCH KO'CHGAN QIZ

Nargizaxon hali yosh bo'lgan ishonch tuyg'usi uning har bir misralarida tasdig'ini topadi.

Men Nargizaxonga ana shu ishtiyoqning so'nmasligi, kelajakda Surxon vohasining, O'zbekistonning eng sara ijodkori bo'lishini, qaysi sohani tanlamasin, ijod unga har ishida madad va tayanch bo'lishini tilab qolaman.

Kavsar TURDIYEVA.

TONG

Qordek musaffo, oppoq
Yana tong otdi.
Vatanimni uyqudan,
Asta uyg'otdi.
Munavvar tong zaminga
Nurlar ularshdi.
Oydinlik nur yurtimga,
Juda yarashdi.
Oppoq tong bu, tinchlikdir
Ozodlik, hurlik.
Oppoq tonglar hamisha,
Otsinlar nurlik.


Nergiza SHOYIMOVA,

Surxonda viloyati, Qiziriq tumanidagi

A. Allaberdiyev nomli 12 - son mактабning 8-sinf o'quvchisi.

TOLE YULDUZIM

She'r bu shoir qalbining,
Qa'ridan chiqqan sado.
She'rmas u tinglaganni,
Qilmasa lolu ado.
Olib qalamni asta,
Yuragingga botirgin.
Oq qog'ozga tushirgin,
Qalbdan chiqqan satrni.
Barchinoy diyoridan,
Qo'xna Surxon qiziman.
She'rga asira bo'lgan,
Zulfiyaxon so'zman.



1. Afrikaning shimoliy qismidagi tog'lar. 2. Mis shohlarining qadimgi nomi. 3. Tanganika ko'li yonidagi kichik davlat.

4. Gibraltar bo'g'ozi tegishli Yevropa davlati.
5. Afrikaning eng baland cho'qqisi.
6. Madagaskarning poytaxti.

Agar bu krossvordni to'g'ri topsangiz, rasmda ko'rsatilgan qit'aning nomi chiqadi.



Tuzuvchi:

Muhammad QARSHIBOYEV,
Toshkentdaggi
328-maktabning
5-«V» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir

o'rinbosari),

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahfalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi.

Korxona manzili: "Buyuk Turon" ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-961 Gazetani

Ma'suda IRISNAZAROVA sahfalandi.

Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137

Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75